


O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari

Toshkent 2023



MUNDARIJA

T/r	bet
1. <i>60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi</i>	5
1.1. Qo‘llanish sohasi	5
1.1.1. <i>60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talabining qo‘llanishi.....</i>	5
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	5
1.2. <i>60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....</i>	5
1.2.1. <i>60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	5
1.2.2. <i>60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyalaritining obyektlari.....</i>	6
1.2.3. <i>60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	6
1.2.4. <i>60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....</i>	7
2. <i>60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....</i>	9
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	9
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	9
2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	11

2.3.1. <i>Kvalifikatsiya</i>	11
2.3.2. <i>60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm- attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta’lim yo’nalishi uchun ajratilgan o’quv fanlari, bloklar bo’yicha soatlar va kreditlar</i>	11
2.3.3 <i>60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm- attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta’lim yo’nalishi bo’yicha ta’lim dasturining tuzilishi</i>	12
Bibliografik ma’lumotlar	13
Kelishuv varag’i	15

60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi

60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'kitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablarining qo'llanishi.

Malaka talablari 60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

-mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

-ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

-bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

-ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

-oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

-oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

-kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

-oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) bakalavriat ta'lim yo'nalishi – “Ishlab

chiqarish va ishlov berish” ta’lim sohasidagi yo’nalish bo’lib, poyabzal, charm-attorlik korxonalarini xom ashyosini qabul qilish, saqlash, dastlabki ishlov berish, poyabzal sanoati mashinalaridan foydalanish, ularga texnik xizmat ko’rsatish va ularni ta’mirlashning samarali jarayonlarini ta’minlashga yo’naltirilgan usullar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

Poyabzal, charm-attorlik xom ashyolari, charm buyumlarini ishlab chiqarishda qo’llaniladigan jihozlar, charm buyumlari, poyabzal qoliplari, charm buyumlar innovatsion texnologik jarayonlar, jihozlari va yordamchi sex obyektlarida poyabzalga ishlov berish texnologiyasini va tarkibini tanlash, ishlatish, nazorat qilish rostlash va boshqalar.

Texnologik uskunalarni joriy va kapital ta’mirlash, poyabzal va uning xom ashyolarini sifat ko’rsatgichlarini aniqlash va nazorat etish, poyabzalni saqlash, yordamchi uskuna va jihozlarni unumli ishlatish, ishlab chiqarishda hisob kitob, ish yuritish xujjatlarini aniq va sifatli olib borish, iqtisodiy tahlil qilish, usta, texnolog, ishlab chiqarish ustasi.

60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o’tgandan keyin, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o’qitish bo’yicha pedagogik faoliyati bilan shug’ullanish huquqiga ega bo’ladi. Bakalavriatning professional ta’lim yo’nalishlari bundan mustasno.

60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o’tgandan keyin, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o’qitish bo’yicha pedagogik faoliyati bilan shug’ullanish huquqiga ega bo’ladi. Bakalavriatning kasb ta’limi yo’nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot;
- tashkiliy–boshqaruv;
- loyihaviy–konstruktorlik;
- axborot-tahliliy faoliyat;

1.2.4. 60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari:

60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

– respublika va xorijda chop etilgan to'qimachilik va yengil sanoati texnologiyalariga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

– charm sanoati sohasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

– mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.

– poyabzal va charm-attorlik mahsulotlari ishlab chiqarish va tayyorlash bo'yicha namunaviy texnologiyalarni tashkil etish;

– poyabzal va charm-attorlik mahsulotlarini ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish;

– amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;

– zamonaviy texnologik jarayonlarni qo'llash;

– ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

– poyabzal va charm-attorlik mahsulotlariga ishlov berishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish;

– texnika xavfsizligi qonunlariga amal qilish va tabiiy resurslardan unumli foydalanish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

– poyabzal va charm-attorlik mahsulotlari ishlab chiqarishda mavjud texnologiyalar va texnik vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko'rsatkichlarini baholash va oshirish choralari ko'rish;

– poyabzal va charm-attorlik mahsulotlari ishlab chiqarishda ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

– zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

– xomashyo va mahsulotlarning tuzilishi, fizik-mexanik xossalari, mahsulotlarning texnik-ekspluatatsion ko'rsatkichlari, moddiy balans, ishlab chiqarish rejimlari va normalari, ishlab chiqarishning asosiy (texnologik) va yordamchi jarayonlari haqida tasavvurga ega bo'lishi, texnologik reglament asosida ishlab chiqarish jarayonlarini tanlash, xomashyolarga ishlov berish va mahsulotlarni ishlab chiqarish loyihasini tuzishni amalga oshira olishi;

– namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi;

– avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi;

– poyabzal va charm-attorlik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini loyihalash, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

– poyabzal va charm-attorlik mahsulotlarini ishlash texnologiyasi bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarni tayyorlash;

– loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

– amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

-boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

-qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

-tashkilotning ichki hujjat aylanish tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatini turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

-loyihalar samaradorligini baholash;

-axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

-boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. 60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iktisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qullay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va o'zlarining professional faoliyatlarida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- qabul qilingan qarorlarning ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridan javobgar bo'lish va tashkiliy va boshqaruv qarorlarini topish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

- muhandislik fizikasiga doir uslublar, uning texnikaga oid boshqa fanlar bilan o'zaro bog'likligi, o'rni, mexanika va uning ahamiyati, optika va texnologik uskunalardagi optik qurilmalar, issiqlik texnikasi va uning texnologik uskunalarda qo'llanishi, elektr tizimlari va ularni qo'llanishi, fotonika va uning ahamiyatini;

- axborot texnologiyalarining texnik tizimlardagi vazifalari, yo'nalishlari va uslublari, texnik tizimlarda ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish usullari, axborot texnologiyalarining zamonaviy texnik vositalari, ma'lumotlarni qayta ishlash dasturlari;

- muhandislik va kompyuter grafikasining yo'nalishlari va uslublari, geometrik shakllarni analiz va sintez qilish, uch o'lchamli jismlarni tekislikdagi proyeksiyalarini qurish, geometrik modellashtirish usullarini o'rganish, kompyuterda modellashtirish usullarini;

- metrologiya va standartlashtirish yo'nalishlari va uslublari, texnologik jarayonlarning omillarini o'lchashda metrologik ta'minot, o'lchash vositalarini

ko'rikdan o'tkazish, omillarni o'lchash usullari va uskunalari, standartlarning turlari, standartlarni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibini;

- iqtisodiyoti va menejmenti yuzasidan korxonalar faoliyatini rejalashtirish, moddiy va moliyaviy resurslarni qidirish, korxonalar faoliyatini boshqarish va ijroni nazorat qilishni;

- sanoat ekologiyasi borasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof muhit ifloslanishini oldini olish, chiqindilarni tozalash, ekologik toza manbaalardan foydalanishni;

- polimerlar fizikasi va kimyosi, tarmoqda qo'llaniladigan polimerlar, polimerlarning kimyoviy xossalari, tarmoqda ishlatiladigan polimerlarning qo'llanilish uslublari va xossalari;

- poyabzal, charm – attorlik ishlab chiqarish mashina va apparatlari hamda ularning turlari, poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish korxonasiidagi jihozlar, ularning ishlab chiqarilayotgan poyabzal sifatiga ta'siri, zamonaviy texnika va texnologiyalarni, texnologik ko'rsatkichlarni va ularda qo'llaniladigan hisoblardan foydalanish, poyabzal xom ashyosining fizik-mexanik ko'rsatkichlardan foydalanib sifatli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi texnologik jarayonlarni tanlash, texnologik jihozlarni to'g'ri ishlatish hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini nazorat qilish va boshqarish;

- nazariy mexanikaning, vazifalari, yo'nalishlari va uslublari, statika, statikaning aksiomalari, jism muvozanati shartlari, kinematika, asosiy tushunchalar, harakatning kinematik xarakteristikalar, dinamika, dinamikaning aksiomalari, harakat turlarini;

- amaliy mexanika bo'yicha mashina va mexanizmlar nazariyasi, asosiy tushunchalar, kinematik juftlikning erkinlik darajasi, mexanizmlarning kinematik tahlili, mashinalarning dinamik tahlili, materiallar qarshiligining asosiy tushunchalari, real konstruksiya va uning hisoblash chizmasi, ta'sir etayotgan kuchlar va tayanch reaksiyalari, mashina detallari, asosiy tushunchalar, zamonaviy mashinalarga qo'yiladigan talablar, mashina detallariga ta'sir etayotgan kuchlar, mashina detallarini loyihalash bosqichlari;

- charm buyumlari texnologiyasi bo'yicha charm buyumlari, poyabzal, poyabzal assortimenti, charm-attorlik, charm buyumlarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlari va uskunalari, jarayonlarning texnologik omillarini o'rnatish va sozlash usullari;

- elektrotexnika va elektronikaning yo'nalishlari va uslublari, elektrotexnik qurilmalarning turlari, chiziqli o'zgaruvchan tok zanjirlari, sinusoidal o'zgaruvchan elektr toki zanjirlari, uch fazali elektr zanjirlari, elektr mashinalari va apparatlari, elektron qurilmalar, diskret qurilmalarni;

- charm buyumlarini konstruksiyalashning yo'nalishlari va uslublari, ishlab chiqarish turlari va shakllari, charm buyumlarini konstruksiyalashda qo'llaniladigan mashinalarni texnik va iqtisodiy asoslangan holda to'g'ri tanlash, detallarni optimal

ko'rsatkichlari va ish rejimlarini tanlash maqsadida hisoblash, o'lchash vositalarini ishlatish, xom-ashyoni dastlabki ko'rsatkichlari asosida texnologik jarayonni va uskunalarni tanlash kabi *nazariy bilimlar, amaliy mahurat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;*

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar - bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari - ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

2.3.1. Kvalifikatsiya: texnolog, muhandis

2.3.2. 60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4380	146
Tanlov fanlar	1770	59
Malakaviy amaliyot	600	20
Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15

2.3.3. 60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4380	146	
1.01.	O’RT1104	O’zbek (rus) tili	120	4	1
1.02.	XTI1209	Xorijiy till,2	270	9	1,2
1.03.	O’EYT1204	O’zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.04.	FAL1404	Falsafa	120	4	4
1.05.	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.06.	OMI1210	Олий matematika 1,2	300	10	1,2
1.07.	MFIZ11210	Muhandislik fizikasi 1,2	300	10	1,2
1.08.	KIM1205	Kimyo	150	5	2
1.09.	TTAT1106	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	180	6	1
1.10.	MKG11212	Muhandislik va kompyuter grafikasi 1,2	360	12	1,2
1.11.	MS1505	Metrologiya va standartlashtirish	150	5	5
1.12.	SIM1405	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	150	5	4
1.13.	SE1604	Sanoat ekologiyasi	120	4	6
1.14.	PFK1405	Polimerlar fizikasi va kimyosi	150	5	4
1.15.	NM1305	Nazariy mexanika	150	5	3
1.16.	TMEX14509	Amaliy mexanika 1,2	270	9	4,5
1.17.	EE1305	Elektrotexnika va elektronika	150	5	3
1.18.	CHBT156715	Charm buyumlari texnologiyasi 1,2,3	450	15	5,6,7
1.19.	CHBK145615	Charm buyumlarini konstruksiyalash 1,2,3	450	15	4,5,6
1.20.	PCH-MA15610	Poyabzal, charm – attorlik ishlab chiqarish mashina va apparatlari 1,2	300	10	5,6
2.00		Tanlov fanlar	1770	59	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	<i>1770</i>	<i>59</i>	<i>3,4,6,7</i>
		Jami:	6150	205	
		Malakaviy amaliyot	600	20	4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15	8
		Jami:	1050	35	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, charm buyumlari, attorlik mahsulotlari, poyabzal, charm-attorlik, poyabzal detallari, tizimli yondoshuv, dasturiy ta'minot, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarishsh, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQLIGAN:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.

Rektor  **prof. S.M. Turabjanov**

2023 yil « 17 » 07

M.O'.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Rektor  **D. Vaxabov**

2023 yil « 15 » 07

M.O'.

KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar vazirligi**


**huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish markazi**

Direktor  **Sh. Yakubov**

2023 yil « 7 » 08

M.O'.

**Buxoro muhandislik-texnologiya
instituti**

Rektor v.b.  **M. Sharipov**

2023 yil « 14 » 07

M.O'.

“TABIYIY CHARM” XK direktori

S.O. Rinboyev

2023 yil « 14 » 07

M.O'.

“Nafis” MCHJ direktori

N. Rasulov

2023 yil « 14 » 07

M.O'.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ 15 ” 07 2023 yil

Biz quyida imzo Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori prof. S.M.Turabdjanov, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti rektori D.Vaxabov, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori v.b. M.Sharipov birgalikda TTYeSIda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yunalishining malaka talablari va ukuv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iktisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son Qarorlari va 2023 yil 15-iyundagi “2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari tog'risida”gi F-31-son Farmoyishiga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan. Asosiy qoidalar”ga shuningdek, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar va xalqaro talablarga asoslangan. Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori

S.Turabdjanov

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti rektori

D.Vaxabov

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori v.b.

M.Sharipov

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida ishlab chiqilgan 60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga

TAQRIZ

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli hamda O'zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi "Oliy ta'limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'i, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasini kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalarining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Buxoro muhandislik-texnologiya
instituti rektori v.b.**



M.Sharipov

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida ishlab chiqilgan 60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga

TAQRIZ

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat 60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-53-son Farmoni qoidalari va tamoyillariga amal qilingan.

60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasida xoriy tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabning kelgusida faoliyat olib boradigan obyektlari misolida fan va texnikaning ilg'or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta'minlangan bo'lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste'molchilari bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (poyabzal, charm-attorlik ishlab chiqarish va jihozlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasida oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

"Nafis" MCHJ direktori



N.Rasulov